

RAQAMLI TEXNALOGIYA DMED TIZIMINI O'RGATUVCHI KURSLARNING TASHKIL ETILISHINING AFZALLIKLARI.

Akbarova Nilufar Nematjanovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali
"Iqtisodiyot va moliya" kafedrası o'qituvchisi

Email: nilufar_akbarova@mail.ru

Dumarova Surayyo Dilshodbek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali
sirtqi ta'lim "Iqtisodiyot" yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Email: dumarovasurayyoxon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola sog'liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida muhim o'rin tutuvchi DMED (Davlat Tibbiy Axborot Tizimi) platformasidan tibbiyot xodimlarining to'g'ri va samarali foydalanishini ta'minlash masalalari yoritilgan. Xususan, DMED tizimining joriy etilishining maqsadi, tizimdan foydalanish bo'yicha o'quv kurslarini tashkil etishning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy afzal tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, malakali o'quv kurslari tibbiyot xizmatlari sifati oshishiga, hujjatlashtirishda xatoliklar kamayishiga va vaqt resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: DMED, raqamli taxnalogiya, AKT va IT xodimlar, sog'liqni saqlash, tibbiyot xodimlari, o'quv kurslari, elektron tibbiy hujjatlar.

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются вопросы обеспечения правильного и эффективного использования платформы DMED (Государственная медицинская информационная система) медицинскими работниками, играющей важную роль в

процессе внедрения цифровых технологий в систему здравоохранения. В частности, анализируются организационные, экономические и социальные преимущества организации курсов повышения квалификации по использованию системы DMED. Результаты исследования показывают, что квалифицированные курсы повышения квалификации способствуют улучшению качества медицинских услуг, снижению ошибок в документации и эффективному использованию временных ресурсов.

Ключевые слова: цифровые медицинские карты, цифровые технологии, ИКТ и IT-специалисты, здравоохранение, медицинский персонал, курсы повышения квалификации, электронные медицинские карты.

Annotation.

This scientific article discusses the issues of ensuring the correct and effective use of the DMED (State Medical Information System) platform by medical workers, which plays an important role in the process of introducing digital technologies in the healthcare system. In particular, the organizational, economic and social advantages of organizing training courses on using the DMED system are analyzed. The results of the study show that qualified training courses contribute to improving the quality of medical services, reducing errors in documentation, and effective use of time resources.

Keywords: DMED, digital technology, ICT and IT staff, healthcare, medical staff, training courses, electronic medical records.

Kirish.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida joriy etilgan DMED tizimi tibbiy ma'lumotlarni yagona elektron platformada yuritish, bemorlar haqidagi ma'lumotlarni tezkor almashish va tibbiy xizmatlar shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, ushbu tizimdan samarali foydalanish bevosita tibbiyot xodimlarining raqamli savodxonligi va amaliy ko'nikmalariga bog'liq. Shu sababli DMED tizimidan foydalanishni o'rgatuvchi maxsus kurslarni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Keling oldin Dmed tizimi o'zi qanday tizim ekanligini to'liqroq tushunib olaylik. DMED ---Davlat tibbiy elektron ma'lumotlar bazasi. Amaliyotda ba'zan quyidagi ma'noda ham ishlatiladi (mazmuni bir xil): Davlat tibbiy elektronniy tizimi, Davlat axborot elektronniy tizimi. Lekin rasmiy hujjatlar va ilmiy maqolalarda eng to'g'ri va tavsiya etiladigan shakl: Davlat tibbiy elektron ma'lumotlar bazasi (DMED) DMED tizimi O'zbekistonning milliy tibbiy axborot tizimi bo'lib, 2024–2025 yillarda joriy etila boshlandi va hozirda butun respublika bo'ylab ishlanmoqda.¹

DMED tizimini joriy etishning maqsadi

- Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish
- Qog'oz hujjatlar va manual ishlarni kamaytirish, ma'lumotlarni elektron shaklda yuritish.
- Tibbiyot muassasalarining ish jarayonlarini tezkor va tizimli qilish.
- Ma'lumotlarning yagona bazada to'planishi
- Bemorlarning tibbiy kartalari, elektron retseptlar, kasallik varaqalari va yo'llanmalarni yagona platformaga birlashtirish.
- Bu davlat statistikasining aniqligini va sog'liqni saqlash tizimini boshqarish samaradorligini oshiradi.
- Sog'liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish
- Tashxis va davolash jarayonida aniqlik va uzluksizlikni ta'minlash.
- Hududlararo xizmatlarni soddalashtirish va bemorlarning qulayligini oshirish.
- Davlat statistikasi va rejalashtirishni rivojlantirish
- Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari (kasallanish, o'lim, tug'ilish, nogironlik) bo'yicha ishonchli ma'lumotlar olish.
- Resurslarni aniq taqsimlash va prognozlash imkoniyatini yaratish.
- Axborot xavfsizligini va shaffoflikni ta'minlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari.

- Ma'lumotlarning maxfiylikini himoya qilish.
- Soxta yoki takroriy hisobotlarning oldini olish.²

Davlatning bunday muhim bo'lgan tizimida, tibbiyot xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish, shifokorlar va hamshiralarning elektron tizimlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — tibbiyot xodimlari uchun DMED tizimidan to'g'ri foydalanishni o'rgatuvchi kurslarni tashkil etishning afzalliklarini ilmiy asosda yoritishdir. Chunki bunday kurslarning tashkil etilishi, Strategik va majburiy darajada muhim. Bu kurslar oddiy o'quv mashg'uloti emas, balki sog'liqni saqlash tizimining barqaror ishlashi, davlat statistikasining ishonchliligi, hizmatlar sifati va shaffofligi, aholi salomatligi xavfsizligi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash tizimi orqali tibbiyot xodimlarini Dmed tizimi bo'yicha o'qitishlar video qo'llanmalar bor. Lekin bular orqali to'liq tushunchaga ega bo'lish juda qiyin. Sababi video qo'llanmalar faqat 1 ta muammoli yechimni video qo'llanma orqali ko'rsatib beradi. Lekin sal boshqacharoq holat yuzaga kelsa bunga javob topolmay nima qilish kerakligini bilmay qolasiz. Chunki Dmed baza juda katta axborot manbayi buni to'liq o'rganish uchun faqatgina video qo'llanmani o'zi yetarli bo'lmaydi. Dmed tizimini bo'yicha o'tkazilayotgan o'quv seminarlarida barcha ham bir tushuna olmaydi. Tizimni to'liq to'g'ri o'rganish uchun har bitta tibbiyot hodim bilan aloxida shug'ullanish kerak. Sog'liqni saqlash tizimida kasallikni har bir holati bo'yicha to'g'ri malumot kiritish juda muximdir. Atiga birgina hato tufaylik bemor xayoti uchun xaf tug'dirib qo'yish mumkin. Bu tizimdan to'g'ri foydalanish uchun ham tibbiy ham Dmed tizimi bilimiga ega bo'lishi juda muximdir.

² DMED (Davlat tibbiy elektron ma'lumotlar bazasi) tizimini joriy etish va undan foydalanish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar. — Toshkent.

Sogʻliqni saqlash tizimi hodimlarining tibbiy malakasini oshirish uchun, maxsus viloyat markazlari tomonidan oʻqitilib kelinadi. Lekin Dmed boʻyicha oʻqitish markazlari hali joriy etilmadi. Faqatla AKT va IT operator hamshiralari uchun markazda oʻqitilyapti, lekin bunga ixtiyoriy bora olmaysiz buning uchun 3yillik staj kerak boʻladi. Mayli AKT va IT operator hamshirasi oʻqib kelib hodimlarga oʻrgatishi mumkin. Lekin IT hodimlar har bitta tibbiyot muassasida faqatla 1 tadan shtat bor. AKT hodimi esa xar 1 ta tumanga 1tadan boʻladi. Eng kichik poliklinikada kamida 50 ta tibbiyot hodimi boʻladi. Butun poliklinika hodimlarining ishi hamda axoliga tez tibbiy elektronniy hizmat koʻrsatishi aynan DMED tizimida ishlash boʻyicha olgan bilimlariga bogʻliq. DMED tizimini tibbiyot hodimlariga oʻrgatishi uchun faqatla AKT hamda IT hodimiga bogʻliq.

Andijon viloyatida 2025-yil fevral oyida Dmed tashkil etilgan. Tibbiyot hodimlari Dmed tizimida ishlash tartibini ish jarayonida oʻrganib ketilgan. Dmed tizimida toʻgʻri ishlash boʻyicha tibbiyot hodimlari hali toʻliq bilimga ega emas. Sababi bu tizim tajriba sinov tariqasida yoʻlga qoʻyilib, ishlash davomida kamchiliklar bartaraf etilib shakllanib bormoqda. Dmed tizmida toʻliq bilimga ega boʻlgan tibbiyot hodimlari juda kam. Oʻzbekistonda 2020 yil koʻrsatkichiga qaraganda 457.5 ming nafar tibbiyot hodimi bor boʻlib, bulardan 91.9 ming nafari shifokor, 365.6 ming nafari oʻrta tibbiyot hodimlarini tashkil etadi.³

Bu koʻrsatkich 5 yil davomida albatta oshgan. Bunday koʻp tibbiyot hodimlariga DMED boʻyicha oʻrgatish uchun IT hodimi ham kam. Qolaversa shifokorlarni DMED tizimida bajarilishi kerak boʻlgan vazifalari juda koʻp ham murakkabdir.

Shifokorlar yuqori tajriba va bilimga ega boʻlgani bilan, oʻz vazifasini, ishini aynan DMED tizimida koʻrsatib berishi kerak. Aksariyat koʻp shifokorlarimizning yoshi katta, ular uchun kompyuterdan foydalanish ancha qiyinchilik tugʻdiradi. Sekin oʻrganib qilgunicha bemorlar kutib turmaydi. Ularning ishi doimo tezkor va aniqlikda ishlashi juda muximdir. Ularning birgina xatosi bemor salomatligi uchun juda katta xaf soladi. Misol

³ Sogʻliqni saqlash sohasining asosiy statistik koʻrsatkichlari.

uchun ko'p shifokorlar tomonidan bemorni Dispanser nazoratiga olishda xatoliklar qilinishi tufayli ishlar sudlashish darajasiga olib borilyapti. Bemorlarga laborator tekshiruvga yuborish, boshqa shifohonalarga yo'llanmalar qilishdagi sekin qilinayotgan, hamda yo'l qo'yilgan xatolar bemorlarni sabrini tamom qilyapti.

Elektronniy tibbiy kartalar ichidagi malumotlarning to'liq bo'lmasligi yoki xato to'ldirilganligi bu bemorlar xayoti uchun haf solidi. Sababi boshqa muassasa shifokorlariga bu malumotlar ko'rinadi. Natijada bu malumotlarga asoslanib shifokorlar noto'g'ri tashxiz qo'yadi. Elektronniy davo kursini tayinlashlar eng muxim jarayon xisoblanib, shifokorning tibbiy tajribasi qanchalik yuqori bo'lmasin, Dmed tizimidan foydalanish tajribasi yetarli bo'lmasa albatta xatoga yo'l qo'yadi. Qarabsizki bemor tuzalishi o'rniga axvoli og'irlashadi yoki boshqa qo'shimcha kasallik ortirib oladi.

Davlatimiz tomonidan Axoli va hodimlar uchun yengillik yaratish maqsadida bu tizim yo'lga qo'yildi. Biroq bu tizimda tezkor aniqlikda ishlash uchun tibbiyot hodimlarda Dmed tizimi bo'yicha yetarlicha bilim va tajribalar yetarli emas. Sog'liqni saqlash elektrtonniy yani raqamlashtirish tizimiga o'tar ekan, tibbiyot xodimlardan faqatgina tibbiy bilimning o'zi yetarli emas. Endilikda bu raqamlashtirish tizimi albatta DMED tizimi bo'yicha bilimlarni talab etadi.

Tibbiyot xodimlari uchun DMED tizimidan to'g'ri foydalanishga qaratilgan o'quv kurslari nihoyatda muhim va yuqori ahamiyatga ega. Kurslarning ahamiyat darajasi, strategik va majburiy darajada muhimdir. Buni ilmiy-amaliy jihatdan quyidagicha asoslash mumkin:

Bu kurslar oddiy o'quv mashg'uloti emas, balki:

- Sog'liqni saqlash tizimining barqaror ishlashi,
- Davlat statistikasining ishonchliligi,
- Aholi salomatligi xavfsizligi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Tibbiyot xodimlari uchun ahamiyati

- DMED funksiyalarini to‘liq va to‘g‘ri o‘zlashtirish imkonini beradi.
- Elektron hujjatlarni xatosiz rasmiylashtirish ko‘nikmasi shakllanadi.
- Tashxis va davolash jarayonida aniqlik va tezkorlik oshadi.
- Huquqiy mas’uliyat kamayadi, chunki hujjatlar to‘g‘ri yuritiladi.
- Kasbiy malaka va raqamli savodxonlik sezilarli darajada oshadi.

Axamiyati: kasbiy faoliyat uchun juda yuqori.

Davlat va tizim uchun ahamiyati

- Sog‘liqni saqlash bo‘yicha aniq statistika shakllanadi.
- Statistik natijalar ortidan davlat kelgusi ish rejalarni to‘g‘ri tashkil etadi.
- Hisobotlar sifati va shaffofligi oshadi.
- Noto‘g‘ri ma’lumotlar sabab yuzaga keladigan xatolar kamayadi.
- Raqamli sog‘liqni saqlash islohotlari samarador bo‘ladi.

Ahamiyati: strategik darajada muhim.

Aholi uchun ahamiyati

- Davolashda uzluksizlik va aniqlik ta’minlanadi.
- Elektron retsept va yo‘llanmalar muammosiz ishlaydi.
- Tibbiy xizmat sifati oshadi.
- Fuqarolarning sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ishonchi kuchayadi.

Ahamiyati: bevosita va hayotiy muhim.⁴

Xulosa

Tibbiyot xodimlariga DMED tizimidan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatuvchi maxsus o‘quv kurslari sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonining ajralmas va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu kurslar tibbiy xizmatlar sifati, davlat

⁴ Sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. — Ilmiy maqola. Ismoilov B.

statistikasi aniqligi va aholi salomatligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Oldingi tizimda tibbiy kartalar yo`qolsa uni tiklash juda muammo bo`lib ko`p vaqt olar edi. Bu esa bemor uchun ancha sarsongarchilikka olib kelardi. Hozirda esmarcha malumotlar Dmed tizimida barchasi saqlanib turadi. Qachon kerak bo`lsa olish imkoni bor. Axoli uchun ham DMED mobil ilovalari orqali bevosita analiz javoblari, hamda elektronniy retseptlarni ko`rish imkoni bor. Masofadan turib shifokor qabuliga yozilish axoli uchun eng qulayliklardan biridir.

Iqtisodiy samaradorlik – qog‘oz hujjatlar kamayib, resurslardan oqilona foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari.
2. DMED (Davlat tibbiy elektron ma’lumotlar bazasi) tizimini joriy etish va undan foydalanish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar. — Toshkent.
3. Sog‘liqni saqlash tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. — Ilmiy maqola. Ismoilov B.
- 4.Elektron tibbiy hujjatlar va ularning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘rni. — Toshkent, 2022.
- 5.Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar.
- 6.Sog‘liqni saqlash sohasining asosiy statistik ko‘rsatkichlari.